

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



Elektron ilmiy-ommabop jurnal

2025

5 -SON

(+998) 50-005-45-69

https://t.me/demografiya_mehnatbozori

demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
5-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный
журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,
Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,
Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,
Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor
Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor
Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor
Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)
Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor
Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD
Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD
Asqarova Muhabbat Ibraximovna
Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Усманов Анвар Саидмахмудович <i>Устойчивое развитие и выравнивание уровня жизни населения</i>	4
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, Xamdamov Shoh-Jaxon Rahmat o'g'li <i>O'zbekiston sanoatidagi uglerod izini qisqartirish</i>	16
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, Xalikchaeva Sadokat Ilxomjonovna <i>O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining rivojlanish bosqichlari</i>	30
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li <i>Janubiy Koreya davlatida uy xo'jaligi transfertlarining iqtisodiy ahamiyati hamda uni o'zbekistonga tatbiq etish imkoniyatlari</i>	44
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, Qurbonov Paxlavon Rustamovich <i>O'zbekiston respublikasida shaharlar tizimi shakllanishi va hududiy urbanistik tarkibdagi o'zgarishlar</i>	60
Musayev Bekzod Murodovich <i>Sirdaryo viloyati shaharlari aholi soni dinamikasi va tarkibining hududiy xususiyatlari</i>	74
Mirzayeva Matluba G'aybulla qizi <i>Fintech va mobil banking platformalarida kiberxavfsizlik darajasini baholashning ilg'or yondashuvlar</i>	83
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li <i>Ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining ahamiyati</i>	93
Bahriddinova Muazzam Azam qizi <i>O'zbekiston hududlarining demografik tahlili</i>	103
Umarov Omonjon Muxammad o'g'li <i>Yosh avlodni madaniy merosni saqlash va turizmga faol ishtirok etishga jalb qilish mexanizmlari</i>	115
Solixova Xumora Xasan qizi <i>Soliq yig'uvchanligini oshirishda jamoatchilik nazorati va ijtimoiy ongning roli</i>	125
Мухамадиева Кубриё Баходировна <i>Цифровая трансформация демографических исследований</i>	135
Shoydulova Maftuna Zafar qizi <i>O'zbekiston korxonalarida kadrlar boshqaruvida yoshlar va ayollarning rolini kuchaytirish strategiyalari</i>	142

JANUBIY KOREYA DAVLATIDA UY XO'JALIGI TRANSFERTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI HAMDA UNI O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna

Iqtisod fanlari doktori, professor
Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universitetining Toshkent filiali
ORCID:0009-0002-8412-8062
QX.Mamadaliyeva@gmail.com

To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li

Kambag'allik va Mehnat bozori tadqiqotlar
instituti tayanch doktoranti
ORCID:0009-0007-1103-7086
mirzohidh@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda Janubiy Koreya misolida avlodlararo transfertlar tizimi, demografik qarish jarayoni va ijtimoiy siyosat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinib, ularning O'zbekiston uchun amaliy ahamiyati baholanadi. Tadqiqot OECD, NTA, KLoSA va KOWEPS ma'lumotlariga tayangan holda Koreyada davlat va oilaviy transfertlarning evolyutsiyasi, Basic Old-Age Pension va parvarish xizmatlarining roli, shuningdek, xususiy transfertlarning kambag'allikni qisqartirish va keksalar farovonligini oshirishdagi o'rni aniqlanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Koreya modeli davlat institutlari, oila va bozor o'rtasida shakllangan "mixed welfare regime" orqali demografik bosimni samarali yumshatadi. Ushbu ishda O'zbekiston uchun besh asosiy strategik yo'nalish taklif etiladi: UzNTA tizimini yaratish, pensiya ta'minotini ko'p pog'onali modelga o'tkazish, oilaviy transfertlarni soliq imtiyozlari va parvarish subsidiyalari orqali rasmiylashtirish, migratsiya transfertlarini "family investment accounts" orqali investitsion oqimga aylantirish hamda ayollar bandligini oshirish orqali xizmat transfertlarini iqtisodiy tizimga integratsiya qilish. Tadqiqot natijalari Koreya tajribasining O'zbekiston demografik o'zgarishlariga moslashgan, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi institutsional modelni shakllantirishda muhim konseptual asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: avlodlararo transfertlar, xususiy transfertlar, davlat transfertlari, NTA (National Transfer Accounts), demografik qarish, hayotiy sikl defitsiti, ijtimoiy siyosat, pensiya tizimi, Basic Old-Age Pension, oilaviy qo'llab-quvvatlash, KLoSA, KOWEPS, remittanslar, family investment accounts, xizmat transfertlari, ayollar bandligi, ijtimoiy himoya.

THE ECONOMIC IMPORTANCE OF HOUSEHOLD TRANSFERS IN SOUTH KOREA AND THE PROSPECTS FOR THEIR APPLICATION IN UZBEKISTAN

Mamadaliyeva Khafiza Kholdarovna

*Doctor of Economic Sciences, Professor
Tashkent Branch of the Plekhanov
Russian University of Economics*

Turaev Mirzokhid Khashim ugli

*basic doctoral student of the Institute for
Poverty and Labor Market Research*

Abstract. This study provides an in-depth examination of the interdependencies between the intergenerational transfer system, population ageing, and social policy in South Korea, and evaluates their strategic implications for Uzbekistan. Using OECD, NTA, KLoSA, and KOWEPS datasets, the research traces the structural evolution of public and private transfers, assesses the functioning of the Basic Old-Age Pension and long-term care services, and elucidates the role of private transfers in mitigating poverty and improving the well-being of older adults. The empirical evidence demonstrates that Korea's "mixed welfare regime," characterized by a synergistic interplay between state institutions, families, and market mechanisms, effectively cushions the socioeconomic pressures generated by rapid demographic ageing. Based on these insights, the study outlines five strategic policy directions for Uzbekistan: the establishment of a national UzNTA framework, the transition toward a multi-pillar pension architecture, the formalization of family transfers through tax incentives and care subsidies, the transformation of remittances into productive investment streams via "family investment accounts," and the integration of service-based transfers into the economic system through enhanced female labor participation. The findings suggest that the Korean experience provides a robust conceptual foundation for designing an adaptive and sustainable institutional model capable of supporting Uzbekistan's long-term demographic and social stability.

Keywords: intergenerational transfers, private transfers, public transfers, NTA, population ageing, life-cycle deficit, social policy, pension system, Basic Old-Age Pension, family support, KLoSA, KOWEPS, remittances, family investment accounts, service transfers, female labour participation, social protection.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ВНУТРИСЕМЕЙНЫХ (ДОМОХОЗЯЙСТВЕННЫХ) ТРАНСФЕРТОВ В РЕСПУБЛИКЕ КОРЕЯ И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Мамадалиева Хафиза Холдаровна

Доктор экономических наук, профессор
Ташкентский филиал Российского экономического
университета имени Плеханова

Тураев Мирзохид Хошим угли

базовый докторант Института исследований
бедности и рынка труда

Аннотация. В данной работе на примере Республики Корея анализируется взаимосвязь между системой межпоколенческих трансфертов, процессом демографического старения и социальной политикой, а также оценивается их практическая значимость для Узбекистана. Опираясь на данные OECD, NTA, KLoSA и KOWEPS, исследование рассматривает эволюцию государственных и семейных трансфертов в Корее, роль программы Basic Old-Age Pension и услуг по уходу, а также выявляет вклад частных трансфертов в сокращение бедности и повышение благосостояния пожилых. Полученные результаты показывают, что корейская модель эффективно смягчает демографическое давление благодаря «смешанному режиму благосостояния», сформированному взаимодействием государственных институтов, семьи и рынка. В исследовании предлагаются пять ключевых стратегических направлений для Узбекистана: создание системы UzNTA, переход к многопилларной модели пенсионного обеспечения, формализация семейных трансфертов через налоговые льготы и субсидии по уходу, трансформация миграционных переводов в инвестиционные потоки посредством «family investment accounts», а также интеграция сервисных трансфертов в экономическую систему путем повышения занятости женщин. Результаты исследования показывают, что опыт Кореи может служить важной концептуальной основой для формирования институциональной модели Узбекистана, адаптированной к демографическим изменениям и обеспечивающей социальную стабильность.

Ключевые слова: межпоколенные трансферты, частные трансферты, государственные трансферты, NTA, демографическое старение, жизненный цикл, социальная политика, пенсионная система,

Basic Old-Age Pension, семейная поддержка, KLoSA, KOWEPS, денежные переводы мигрантов, family investment accounts, сервисные трансферты, занятость женщин, социальная защита.

Kirish.

So'nggi yillarda Janubiy Koreya iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar qatoriga kirgan bo'lsa-da, mamlakat demografik tuzilmasida keskin o'zgarishlar kuzatilmoqda. OECD(Organisation for Economic Co-operation and Development) ya'ni Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hisobotida 2023-yilda aholining 20 foizidan ortig'i 65 yoshdan oshgan. 2036-yilga borib bu ko'rsatkich 30 foizga yetishi prognoz qilinmoqda [1]. Demografik qarish jarayonining tezlashuvi ijtimoiy himoya tizimi, mehnat bozori va uy xo'jaliklari iqtisodiy xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Koreyada tarixan avlodlararo yordam – uy xo'jaliklari transfertlari – iqtisodiy hayotning ajralmas qismi bo'lib kelgan. 1970–1990-yillarda ota-onalarni moddiy qo'llab-quvvatlash farzandlar uchun axloqiy majburiyat sifatida qaralgan. Ammo urbanizatsiya, ayollar bandligining ortishi va oilaviy tuzilmaning o'zgarishi natijasida xususiy transfertlar qisqarib, ularning o'rnini davlat transfertlari, xususan **Basic Old-Age Pension (BOAP)** tizimi egallay boshladi [2].

Hozirda 65 yoshdan oshgan aholining daromad manbalarida davlat transfertlari o'rtacha 30 foizni [3], oilaviy transfertlar esa 5–8 foizni tashkil etadi [4]. Bu shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreyada keksalar daromadining deyarli yarmi davlat va xususiy transfertlar uyg'unligidan shakllanadi. **National Transfer Accounts (NTA)** yondashuvi asosidagi hisob-kitoblarga ko'ra, mehnatga layoqatli yoshdagi aholining ishlab chiqargan resurslari bolalik va keksalik davridagi iste'molni moliyalashtiradi [5].

O'zbekiston uchun bu tajriba dolzarb ahamiyatga ega. Mamlakatda 2020-yilda 65 yoshdan oshganlar aholining 5-6 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2050-yilga borib bu ulush 13 foizga yetishi kutilmoqda [6]. Shu sababli Janubiy Koreya modelini o'rganish O'zbekistonda aholining qayta tiklanishi, transfert tuzilmalari hamda ijtimoiy siyosat barqarorligini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda demografik o'zgarishlar, aholi qarishi va oilaviy tuzilmaning transformatsiyasi sharoitida uy xo'jaligi transfertlari jamiyat barqarorligining asosiy iqtisodiy va ijtimoiy tayanchlaridan biri sifatida talqin etiladi. Avlodlararo yordam inson kapitaliga yo'naltirilgan sarmoya, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi mexanizm hamda aholi farovonligini oshirish va

kambag'allikni kamaytirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida ta'riflanadi. Sharqiy Osiyo, xususan Janubiy Koreya bo'yicha tadqiqotlar oilaviy va davlat transfertlarining uyg'unlashuvi demografik bosim sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashini ko'rsatadi.

Mahalliy ilmiy manbalarda esa O'zbekistonda avlodlararo qo'llab-quvvatlashning tarixiy-an'anaviy ildizlari, farzandlar ta'limi, keksalar parvarishi va uy xo'jaligi barqarorligidagi o'rni chuqur yoritilgan. Ilmiy izlanishlarda bunday transfertlar oilaning iqtisodiy chidamliligini oshirishi, iste'molni barqarorlashtirishi va aholining ijtimoiy himoyasi uchun muhim amortizator vazifasini bajarishi qayd etiladi.

Ammo, ta'kidlash joizki, kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush tarzini yaxshilash masalasi har doim dolzarb bo'lib qoladi. Bu esa olimlardan yanada samarali ilmiy tadqiqotlar olib borishni, muammoning tub omillarini chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida mavjud statistik ma'lumotlarga tayangan holda mantiqiy tahlil usullari qo'llanildi. Tahlilda induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, solishtirma yondashuv hamda prognozlash metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, Janubiy Koreya va O'zbekistonga oid ishonchli statistik bazalar, rasmiy institutlar hisoboti, xalqaro tashkilotlar (OECD, UNFPA, World Bank va boshqalar) ma'lumotlari hamda uy xo'jaliklari transfertlariga oid ilmiy tadqiqotlar malumotlari umumlashtirilgan holda qiyosiy tahlil qilindi.

Uy xo'jaligi transfertlari zamonaviy iqtisodiyotda resurslarning qayta taqsimlanishi, ijtimoiy barqarorlik va avlodlararo birdamlikning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Klassik nazariyalarda uy xo'jaliklari asosan iste'mol va jamg'arma birliklari sifatida qaralgan bo'lsa, keyingi o'n yilliklarda uy xo'jaliklari o'rtasidagi transfertlar alohida tahlil ob'ekti sifatida shakllandi. Avlodlararo transfertlar, xususiyy (private) transfertlar, remittanslar va xizmat ko'rinishidagi qo'llab-quvvatlashlar nafaqat mikro darajadagi ijtimoiy aloqalarni, balki makroiqtisodiy jarayonlarni ham chuqur belgilab beradi [7].

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Biz tadqiqotimizda Janubiy Koreyada uy xo'jaligi transfertlarining shakllanishi, kambag'allikni qisqartirishdagi roli, keksalar farovonligi va uy xo'jaliklari barqarorligiga ta'sirini mavjud empirik ma'lumotlar asosida tahlil qildik. Shuningdek, ushbu jarayonlarning O'zbekiston sharoitidagi holati va rivojlanish omillarini mantiqiy, solishtirma hamda tizimli yondashuvlar asosida o'rgandik.

Uy xo'jaligi transfertlari deganda bu bir uy xo'jaligidan boshqasiga yoki uy xo'jaligi a'zolari o'rtasida mulk, pul mablag'lari, tovarlar yoki xizmatlarning hech qanday ekvivalent to'lov yoki kompensatsiya talab qilinmagan holda o'tishini anglatadi. Ushbu transfertlarga ota-onalarning farzandlariga uy-joy xaridi uchun beradigan moliyaviy yordami, farzandlarning ota-onalariga pensiyaga qo'shimcha sifatida yuboradigan mablag'lari, qarindoshlar o'rtasidagi moddiy yordam, migratsiya tufayli shakllanadigan remittanslar, shuningdek parvarish, uy ishlarida ko'maklashish yoki bolalarni parvarish qilish kabi xizmat ko'rinishidagi qo'llab-quvvatlashlar kiradi [7].

National Transfer Accounts (NTA) yondashuvi nuqtai nazaridan uy xo'jaligi transfertlari hayotiy sikl defitsitini qoplashning asosiy vositalaridan biridir. Inson hayot davrida bolalik va qariyalik bosqichlarida iste'mol ishlab chiqarishdan yuqori bo'ladi, mehnatga layoqatli davrda esa aksincha – ishlab chiqarish ustun keladi. Aynan mana shu nomutanosiblikni yumshatish uchun mehnatga layoqatli avlod tomonidan bolalar va keksalarga resurslar transfertlari amalga oshiriladi. Bu transfertlar davlat (pensiya, nafaqa, subsidiyalar) orqali ham, xususiy (oilaviy) transfertlar orqali ham sodir bo'ladi.

Uy xo'jaligi transfertlari formal (huquqiy asoslangan, shartnomaviy) va norasmiy (oilaviy, qarindoshlik aloqalariga asoslangan) shakllarda bo'lishi mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ayniqsa norasmiy uy xo'jaligi transfertlari keng tarqalgan bo'lib, ular ko'pincha rasmiy ijtimoiy himoya tizimidagi bo'shliqlarni qoplaydi.

Avlodlararo transfertlar (intergenerational transfers) – bu turli avlodlar vakillari o'rtasida amalga oshiriladigan resurs oqimlaridir. Ular odatda ikki asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi:

1. kattalardan yosh avlodga (ota-onadan farzandga),
2. yosh avloddan keksalarga (farzanddan ota-onaga).

Birinchi yo'nalish – bolalar va yoshlar uchun ta'lim xarajatlari, sog'liqni saqlash chiqimlari, uy-joyga boshlang'ich kapital, nikoh yoki tadbirkorlik faoliyatini boshlashda moliyaviy ko'mak tarzida namoyon bo'ladi. Bunday transfertlar, mohiyatan, inson kapitaliga sarmoya hisoblanadi va kelajakdagi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ota-onalar tomonidan farzandlarga yo'naltirilgan transferlar ko'plab iqtisodiy modellar, jumladan, Bekkerning "oilaviy qarorlar" nazariyasi doirasida altruizm, avlodlararo shartnoma va strategik o'zaro manfaatlar kontekstida tahlil qilinadi.

Ikkinchi yo'nalish – farzandlar tomonidan keksalarga ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash bo'lib, u nafaqat moliyaviy resurslar (naqd pul, nafaqa ustamolari), balki parvarish, tibbiy ko'mak, uy ishlaridagi xizmat shaklida ham bo'ladi. Demografik qarish kuchayib borayotgan jamiyatlarda aynan mana shu yo'nalishdagi avlodlararo transfertlar keksalar farovonligi va keksalikdagi

qashshoqlik xavfini kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Rasmiy pensiya tizimi yetarli bo'lmagan sharoitda farzandlar yordamining "xususiy pensiya" vazifasini bajarishi kuzatiladi [8].

NTA hisob-kitoblarida avlodlararo transfertlar davlat transfertlari, xususiy oilaviy transfertlar va aktivlar daromadi orqali o'lchanadi. Keksalarning hayotiy sikl defitsiti qanchalik katta bo'lsa, bu defitsitni qoplashda avlodlararo transfertlarning roli shunchalik muhim bo'ladi. Shuningdek, demografik tuzilma o'zgargani sari (tug'ilishning pasayishi, umr davomiyligining uzayishi) keksalar ulushi ortadi va natijada avlodlararo transfertlar tizimi ham iqtisodiy, ham institutsional jihatdan moslashishni talab qiladi [8].

Xususiy transfertlar (private transfers) uy xo'jaliklari o'rtasida yoki uy xo'jaligi a'zolari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan resurs oqimlaridir. Ular pul ko'rinishida (naqd pul, bank o'tkazmalari), natura ko'rinishida (mahsulot, kiyim-kechak, dori-darmon) yoki xizmat shaklida (parvarish, ta'mirlash, transport) bo'lishi mumkin. Xususiy transfertlar ko'pincha qarindoshlik aloqalari, ijtimoiy majburiyatlar, o'zaro yordam va ishonch asosida shakllanadi.

Xususiy transfertlar ichida yana ikki yo'nalishni ajratish maqsadga muvofiq:

- avlodlararo xususiy transfertlar (ota-ona va farzandlar o'rtasida),
- bir avlod ichidagi transfertlar (aka-uka, opa-singil, do'stlar va boshqa qarindoshlar o'rtasida).

Avlodlararo xususiy transfertlar yuqorida qayd etilganidek, bolalar ta'limi, uy-joy, sog'liqni saqlash va keksalarga yordam ko'rinishida bo'ladi. Avloddosh transfertlar esa odatda vaqtinchalik daromad shoklarini yumshatish (ishsiz qolish, kasallik, favqulodda xarajatlar) hamda yirik xarajatlarni (to'y, ma'raka, qurilish) moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbek oilasida ota-onalar avlodlar davomiyligining asosiy tayanchi sifatida farzandlarning ta'lim olishi, uy-joy sharoitlarini yaratish, mustaqil hayotga kirib borishi hamda keksalik davrida ularga parvarish ko'rsatish mas'uliyatini asrlar davomida o'z zimmasiga olib kelgan. Ushbu an'anaviy model oilaning nafaqat tarbiyaviy, balki iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini ham o'z ichiga oladi: bolalar uchun inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar, voyaga yetgan farzandlar uchun turmushni boshlashga ko'mak, shuningdek, pensiya yoshidagi ota-onalarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish oila ichida resurslar harakatining uzluksizligini ta'minlaydi. Bu tizim o'zbek oilasida avlodlararo birdamlikni mustahkamlovchi va ijtimoiy barqarorlikni saqlovchi eng barqaror institut sifatida shakllangan [9]. O'zbekistonda avlodlararo transfertlar – oilaning barqaror rivojlanishidagi roli bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Bunda X.X. Mamadaliyeva o'z tadqiqotlarida avlodlararo transfertlarni oilaning barqaror rivojlanishidagi o'rni qanchalik darajada muhim ekanligini batafsil yoritib bergan [10].

Migratsiya sharoitida xususiy transfertlarning alohida shakli – remittanslar – shakllanadi. Mehnat migrantlari tomonidan vatandagi oila a'zolariga yuboriladigan pul o'tkazmalari ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda uy xo'jaligi daromadining asosiy manbalaridan biriga aylanmoqda. Remittanslar qisqa muddatda iste'molni qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni kamaytirish, daromadlarni diversifikatsiya qilish, shoklarga chidamlilikni oshirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli istiqbolda esa ushbu mablag'larning qanchalik qismi ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy kapitali va tadbirkorlikka yo'naltirilishi iqtisodiy o'sish va avlodlararo tenglik nuqtai nazaridan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Uy xo'jaligi transfertlarining iqtisodiy ahamiyatini faqat alohida uy xo'jaligi darajasida emas, balki tizimli nuqtai nazardan baholash zarur. Birinchidan, transfertlar iste'molni vaqt bo'yicha tekislash (consumption smoothing) funksiyasini bajaradi. Daromadlar mavsumiy yoki tasodifiy tebranishlarga uchragan sharoitda, qarindoshlar yordamida uy xo'jaligi iste'mol darajasini ma'lum barqarorlikda ushlab turadi. Bu, ayniqsa, rasmiy kredit bozori rivojlanmagan yoki past daromadli qatlamlar uchun muhim.

Ikkinchidan, uy xo'jaligi transfertlari ijtimoiy sug'urta vazifasini bajaradi. Kasallik, ishsizlik, nogironlik, tabiiy ofat kabi xatarlar yuzaga kelganda, davlat sug'urtasi yetarli bo'lmagan sharoitda oilaviy yordam asosiy xavfsizlik tarmog'i vazifasini bajaradi. Shu ma'noda, xususiy transfertlar rasmiy ijtimoiy himoya tizimini to'ldiruvchi (komplementar) institut sifatida qaraladi.

Uchinchidan, avlodlararo transfertlar iqtisodiy o'sish va inson kapitali shakllanishida fundamental rol o'ynaydi. Ota-onalar tomonidan farzandlar ta'limiga, sog'lig'iga, kasbiy tayyorgarligiga qilingan sarmoyalar kelajakdagi ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi. Aksincha, keksalarga yo'naltirilgan transfertlar ularning iste'molini ta'minlab, keksalikdagi qashshoqlikni kamaytiradi, sog'liq holatini yaxshilaydi va ijtimoiy faolligini saqlashga yordam beradi.

To'rtinchidan, uy xo'jaligi transfertlari jamiyatda ijtimoiy birdamlik, ishonch va kooperatsiya darajasini yuqori ushlab turishga xizmat qiladi. Qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi muntazam yordam tizimi ijtimoiy kapitalning muhim ko'rinishi bo'lib, u bozor munosabatlari samaradorligini ham oshirishi mumkin. Bunday tarmoqlar orqali axborot almashinuvi, ish joyi topish, kreditga ega bo'lish kabi jarayonlar yengillashadi.

Uy xo'jaligi transfertlarini tahlil qilishda davlat va xususiy transfertlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalasi ham muhimdir. Nazariy jihatdan davlat transfertlarining ortishi oilaviy yordamni qisqartirishi (crowding-out) yoki aksincha, uni qo'llab-quvvatlashi (crowding-in) mumkin. Masalan, keksa avlod davlat pensiyasi orqali minimal iste'mol darajasini ta'minlay olsa, farzandlar

tomonidan ko'rsatiladigan yordamning shakli va miqdori o'zgarishi ehtimoli mavjud. Ba'zi tadqiqotlarda davlat to'lovlari oilaviy yordamni kamaytirishi aniqlansa, boshqa tadqiqotlarda aksincha – davlat transfertlari oilaviy qo'llab-quvvatlashni rag'batlantirishi ham kuzatiladi (masalan, nafaqa hisobiga keksalarning farzandlar va nabiralarga qayta transfertlari) [11].

Shuning uchun rivojlanayotgan mamlakatlar uchun optimal siyosiy maqsad – davlat va xususiy transfertlar o'rtasida muvozanatli, bir-birini to'ldiruvchi (komplementar) tizimni shakllantirishdir. Bunda davlat siyosati oilaviy birdamlikni siqib chiqarmasligi, aksincha, uni institutsional asosda qo'llab-quvvatlashi kerak: soliq imtiyozlari, parvarish subsidiyalari, uyda qarovchi shaxslar uchun ijtimoiy sug'urta tizimi kabi choralar aynan shunday maqsadga xizmat qiladi.

Janubiy Koreyada uy xo'jaligi transfertlari tizimi tarixan konfutsiycha qadriyatlar, xususan ota-onaga hurmat va moddiy g'amxo'rlik tamoyiliga asoslangan bo'lgan [12]. Bu tamoyil uzoq vaqt davomida ijtimoiy birdamlikning poydevorini tashkil etgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tez iqtisodiy o'sish, urbanizatsiya va ayollar bandligining ortishi oilaviy tuzilmani tubdan o'zgartirdi. 1960-yilda keksalarning 80 foizi farzandlari bilan yashagan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu ko'rsatkich 35 foizgacha kamaydi [13]. Shunga qaramay, o'zaro oilaviy qo'llab-quvvatlash Koreya ijtimoiy tizimining muhim elementi bo'lib qolmoqda. Mamlakatning "uch ustunli ijtimoiy modeli" — mehnat, oila va davlat integratsiyasiga asoslanadi [14]. 1997-yilgi Osiyo moliyaviy inqirozidan so'ng davlat ijtimoiy himoya tizimini kengaytirgan bo'lsa-da, oilaviy transfertlar hali ham iqtisodiy xavfsizlikning asosiy manbai hisoblanadi.

Basic Old-Age Pension (BOAP) dasturi 2008-yilda joriy etilib, dastlab eng past daromadli 60 foiz keksa aholiga mo'ljallangan edi. 2014-yildan so'ng islohotlar natijasida pensiya qamrovi kengaydi va 2023-yilda 65 yoshdan oshganlarning 70 foizga yaqini ushbu to'lovni olmoqda [15]. Ammo to'lov miqdori o'rtacha 300 ming wonni tashkil etib, keksalarning asosiy ehtiyojlarini to'liq qoplamaydi. Shu sababli, oilaviy yordam — nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy majburiyat sifatida — hanuzgacha asosiy tayanch hisoblanadi [16].

Ko'plab olimlar o'tkazgan empirik tadqiqotlarni o'rganishimiz natijasida, Janubiy Koreyada keksalarning taxminan yarimi farzandlaridan muntazam moddiy yoki nomoddiy shaklidagi yordam oladi [17]. Bu yordamlar asosan ikki shaklda bo'ladi: moliyaviy transfertlar (naqd pul yoki to'lovlar) va xizmat transfertlari (uy ishlari, parvarish, birga yashash). Ushbu tizim iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlab, mehnatga layoqatli avlod zimmasidagi ijtimoiy bosimni yumshatadi.

Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, avlodlararo transfertlar nafaqat ijtimoiy birdamlikni, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ham ta'minlaydi.

Demografik qarish jarayonida oilaviy transfertlar keksalar uchun “xususiy pensiya tizimi” vazifasini bajarib, ijtimoiy bosimni kamaytiradi [18]. **National Transfer Accounts (NTA)** modeliga ko‘ra, inson hayot davrida iste‘mol va ishlab chiqarish o‘rtasida nomutanosiblik mavjud: bolalik va keksalikda iste‘mol yuqori, mehnatga layoqatli davrda esa ishlab chiqarish ustun bo‘ladi [8]. Ushbu nomutanosiblik “hayotiy sikl defitsiti” deb ataladi va u har bir jamiyat uchun ajralmas demografik-iqtisodiy hodisadir. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining yaratgan ortiqcha ishlab chiqarishi bolalar va keksalarning iste‘molini moliyalashtirish uchun qayta taqsimlanadi. NTA modelida bu taqsimot uchta asosiy kanal orqali amalga oshadi: davlat transfertlari (ta‘lim, sog‘liqni saqlash, pensiya), xususiy oilaviy transfertlar (ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi moddiy yordam) hamda aktivlar va jamg‘armalar orqali resurslarning o‘zaro almashinuvi. Shunday qilib, jamiyatning iqtisodiy barqarorligi avlodlar o‘rtasida resurslarning qanchalik samarali taqsimlanishiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. NTA hisob-kitoblariga ko‘ra, Janubiy Koreyada keksalarning hayotiy sikl defitsiti asosan uch manba orqali qoplanadi: taxminan uchdan bir qismi davlat transfertlari, qariyb beshdan bir qismi oilaviy transfertlar, qolgan qismi esa aktivlar hisobiga moliyalashtiriladi [19]. 2022-yilda KOSTAT bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, Koreyada har 100 nafar mehnatga layoqatli aholiga taxminan 23 nafar keksalar hamda taxminan 18 ta yosh avlod to‘g‘ri kelgan. Bu esa ishlab chiqarilgan resurslarning ko‘proq qismi keksalikdagi iste‘molni qoplashga yo‘naltirilayotganini ko‘rsatadi [20]. Shu sababli, oilaviy transfertlar iqtisodiy siklni muvozanatlashda muhim amortizator rolini bajaradi.

KIHASA (2021) ma‘lumotlariga ko‘ra, Janubiy Koreyada 65 yoshdan oshgan aholining 77–79 foizi farzandlaridan xususiy moliyaviy yordam oladi [21]. KLoSA ma‘lumotlarini tahlil qilgan Kim va Cook tadqiqotlarida esa xususiy transfert oluvchilar orasida yillik o‘rtacha yordam miqdori 2,1 million won (\$2180-2200) atrofida ekani qayd etilgan [22]. Shuningdek, 2023 yildagi Journal of Aging Studies tadqiqoti farzandlar tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash keksalarning farovonligini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi [23]. Ushbu oqimlar nafaqat ijtimoiy yordam, balki ichki talabni rag‘batlantiruvchi omil sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarga yo‘naltirilgan transfertlar odatda iste‘mol xarajatlari sifatida ishlatiladi, bu esa ichki iqtisodiy aylanishni tezlashtiradi va mahalliy talabni qo‘llab-quvvatlaydi [24]. NTA hisob-kitoblari va xalqaro taqqoslashlar shuni ko‘rsatadiki, Janubiy Koreyada avlodlararo transfertlar (public + private) hajmi boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan ancha yuqori. East Asia davlatlarining umumiy modelidan kelib chiqib, Koreyada ushbu oqimlarning ulushi OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) ya‘ni Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlari uchun xos bo‘lgan 12–13 foizlik darajadan

sezilarli ravishda yuqoriroq baholanadi [25]. Shu orqali Koreya modeli davlat va oila institutlarining uyg'un ishlashini, ijtimoiy birdamlikni iqtisodiy resurs aylanishi bilan bog'lashini namoyon etadi.

Janubiy Koreyada davlat va xususiy (oilaviy) transfertlar iqtisodiy taqsimot tizimining ikki asosiy elementi bo'lib, ular keksalarning moliyaviy farovonligini ta'minlashda bir-birini to'ldiradi. Mamlakatning ijtimoiy siyosati adabiyotlarda "mixed welfare regime" sifatida talqin qilinadi, ya'ni davlat, oila va bozor institutlarining o'zaro uyg'unlashgan tizimiga asoslanadi [26]. Tadqiqotlar o'rganishimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, davlat pensiyalari va jamoat yordamining kengayishi oilaviy qo'llab-quvvatlashni har doim ham kamaytirmaydi; ayrim holatlarda ular o'zaro kuchaytiruvchi, ya'ni crowding-in ta'sir ko'rsatadi [27].

KOWEPS ma'lumotlariga asoslangan tadqiqot natijalariga ko'ra, Basic Pension oluvchi keksalarning atigi 21,8 foizi ushbu nafaqa tufayli endi farzandlaridan moliyaviy yordamga muhtoj emasligini bildirgan. Bu esa qolgan ko'pchilik uchun oilaviy qo'llab-quvvatlash hali ham muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi [28]. Bu davlat transfertlarining oilaviy qo'llab-quvvatlashni rag'batlantiruvchi rolini ko'rsatadi, chunki tadqiqotlar keksalar Basic Pensiondan olgan daromadning bir qismini farzandlari yoki nabiralari bilan bo'lishishini ko'rsatadi [29].

Janubiy Koreyada demografik qarish kuchaygani sari pensiya tizimiga tushayotgan fiskal bosim ortib bormoqda. OECD va IMF hisob-kitoblariga ko'ra, kelgusi o'n yilliklarda pensiya xarajatlarining YIMdagi ulushi sezilarli darajada oshishi va bu davlat moliyasiga qo'shimcha yuk keltirishi kutilmoqda [30]. Shu sharoitda Koreya ijtimoiy siyosati an'anaviy "family-centred welfare regime" doirasida rivojlanib, davlat, oila va bozor institutlarining o'zaro uyg'unlashgan modeliga tayangan holda oilaviy yordamni qo'llab-quvvatlashga intilmoqda [31]. Masalan, **Long-Term Care Insurance (LTCI)** dasturi keksalar uchun parvarish xizmatlarini moliyalashtiradi, biroq oilaviy parvarish uchun to'lov (caregiver subsidy) ham mavjud. Bu davlat transfertining oilaviy transfertga aylanishini anglatadi, ya'ni fiskal barqarorlikni saqlab, oilaviy birdamlikni kuchaytiruvchi mexanizm sifatida ishlaydi [32]. Davlat va oilaviy transfertlarning bunday uyg'unligi Koreya ijtimoiy siyosatida moslashuvchanlikni ta'minlaydi: iqtisodiy inqiroz davrida (masalan, 1997 va 2020-yillarda) oilaviy yordam davlat to'lovlariga nisbatan tezroq oshgan [33]. Shu orqali Koreya jamiyati resurslarning ikki yo'nalishli harakatini — davlatdan oilalarga va oilalardan qarindoshlarga — barqaror tizim sifatida shakllantirgan.

O'zbekiston sharoitida ham davlat va xususiy transfertlar o'rtasida o'zaro ta'sir mexanizmlari mavjud. Mehnat migratsiyasidan kelayotgan pul o'tkazmalari (remittances) oilaviy transfertlarning asosiy shaklini tashkil etadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda migrantlar transfertlari YAIMning

taxminan 17–18% ini tashkil etdi. Bu daraja, rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida juda yuqori ko'rsatkichdir [34]. Bu mablag'lar ko'pincha iste'mol xarajatlariga yo'naltiriladi, biroq ularning bir qismini jamg'arma yoki investitsiya shakliga o'tkazish imkoniyati iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashi mumkin. Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat va oilaviy transfertlar o'rtasidagi muvozanat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat to'lovlarining kuchayishi oilaviy yordamni kamaytirishi yoki formasini o'zgartirishi mumkin (crowding-out); aksincha, davlat qo'llab-quvvatlovi zaif bo'lgan holatda oilaviy yordam muhim rol o'ynayveradi (substitution) [35]. O'zbekistonda avlodlararo qo'llab-quvvatlash oilaviy birdamlikning asosiy mexanizmi hisoblanadi [36]. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, oilaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini davlat dasturlari bilan bog'lash rasmiy iqtisodiyotga integratsiyani kuchaytiradi. Ijtimoiy sug'urta, uzoq muddatli parvarish xizmatlari va soliq imtiyozlari kabi vositalar oilaviy birdamlikni rag'batlantirishda samarali bo'ladi [37]. Shuningdek, ayollar bandligini kengaytirish oilaviy xizmat transfertlari yukini kamaytiradi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy Koreyada ayollarning mehnatga layoqatli aholiga nisbatan ishtiroki taxminan 56 % ni, O'zbekistonda esa taxminan 39–40 % ni tashkil etadi [38]. Shu sababli, ayollar mehnatini rasmiy sektorga jalb qilish bilan bir qatorda, ularning uy mehnatini ijtimoiy qiymat sifatida tan olish dolzarbdir.

O'zbekiston uchun yana bir muhim xulosa — oilaviy transfertlarni rasmiy iqtisodiy tizimga integratsiya qilish zarurati. Buning uchun oilaviy yordam ko'rsatuvchi shaxslarga soliq chegirmalari berish, uyda parvarish qiluvchi shaxslarga to'lov tizimi (home-care subsidiya) joriy etish mumkin. Bu nafaqat norasmiy mehnatni rasmiylashtiradi, balki ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi [39].

Demografik bosim ortib borayotgan hozirgi sharoitda, O'zbekiston uchun avlodlararo transfertlar tizimi iqtisodiy resurslarning barqaror aylanishini ta'minlovchi strategik vosita sifatida shakllanishi kerak. NTA yondashuviga asoslangan mahalliy monitoring tizimi (masalan, UzNTA) davlat siyosatini empirik dalillarga tayangan holda boshqarish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar.

Janubiy Koreya tajribasi avlodlararo transfertlar tizimi, demografik siyosat va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi. Ushbu modelning muvaffaqiyati davlat siyosati, oilaviy birdamlik va ijtimoiy institutlarning uyg'un ishlashida namoyon bo'lgan. O'zbekiston uchun ham, demografik bosim kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda, Koreya tajribasini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, uni milliy sharoitga moslashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, **avlodlararo transfertlar tizimini milliy darajada o'lchash va baholash tizimini yaratish** zarur. Bugungi kunda O'zbekistonda oilaviy

yordamlar, migrantlar transfertlari yoki xizmat ko'rsatish shaklidagi qo'llab-quvvatlashlar iqtisodiy statistikada to'liq aks etmaydi. Shu sababli Koreyadagi KOWEPS yoki KLoSA singari panel so'rovlar asosida **Uy xo'jaliklari transfertlari monitoring tizimini** joriy etish, keyinchalik esa **UzNTA** – milliy transfer hisobi tizimini shakllantirish zarur [8]. Bu ijtimoiy siyosatni dalillarga asoslangan tarzda rejalashtirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, pensiya tizimini ko'p pog'onali model asosida modernizatsiya qilish lozim. Hozirda O'zbekistonda pensiya ta'minotining asosiy qismi davlat tomonidan moliyalashtiriladigan, majburiy sug'urta badallariga tayanadigan tizim orqali amalga oshiriladi. Biroq 2021-yilda e'lon qilingan ochiq manbalarga ko'ra, O'zbekistonda 2030-yilgacha uch pog'onali pensiya tizimiga o'tish rejalashtirilgan [Sputnik Uzbekistan, 2021]. Ushbu rejalashtirilgan model bazaviy pensiya, sug'urtaga asoslangan pensiya va jamg'arma hisoblaridan iborat diversifikatsiyalashgan tizimni nazarda tutadi.

Uchinchidan, oilaviy transfertlarni rasmiy iqtisodiy tizimga integratsiya qilish O'zbekiston sharoitida ustuvor yo'nalish bo'lishi kerak. Bu jarayon soliq imtiyozlari, davlat subsidiyalari va oilaviy jamg'arish mexanizmlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan, ota-onasiga moddiy yordam ko'rsatgan yoki ularni parvarish qilayotgan fuqarolarga soliq chegirmalari berish, Koreyadagi "family care allowance" tizimining milliy variantini yaratish ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi va norasmiy yordamni rasmiy sektorga o'tkazadi [39].

To'rtinchidan, migratsiya transfertlarini investitsion mexanizmlarga yo'naltirish lozim. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonga yuborilgan 14,6 mlrd AQSh dollari miqdoridagi remittanslarning katta qismi iste'mol xarajatlariga sarflanmoqda [34]. Bu mablag'larning bir qismini ta'lim, sog'liqni saqlash yoki uy-joy jamg'arish fondlariga yo'naltirish uchun moliyaviy institutlar orqali maxsus "family investment accounts" tizimini yaratish muhimdir. Family investment accounts — uy xo'jaligi darajasida shakllantiriladigan, migratsiya transfertlarini oddiy iste'moldan uzoq muddatli iqtisodiy aktivlarga yo'naltirishga xizmat qiluvchi jamg'arma va investitsiya tizimi bo'lib, bu tizim inson kapitaliga investitsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan institutsional yechim sifatida taklif etiladi. Bunday hisoblar chet elda ishlayotgan migrantlarning pul o'tkazmalarini avtomatik tarzda ajratib, uning ma'lum qismini ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy xaridi yoki pensiya jamg'armasi kabi maqsadli yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi. Amaliy jihatdan bu mexanizm bank depozitlari, maxsus jamg'arma hisoblari yoki investitsion fondlar bilan integratsiyalashgan bo'lib, hisob egasiga qat'iy shartlar asosida mablag'ni faqat inson kapitaliga yoki aktivlarga yo'naltirishga ruxsat beradi. Shunday qilib, remittanslar qisqa muddatli iste'molni moliyalashtiruvchi oqim emas, balki farzandlar ta'limi, sog'liqni saqlash sifatini yaxshilash va uy-joy kapitalini shakllantirish orqali kelajak daromadni oshiruvchi strategik resursga aylanadi. Bunday hisoblarning samarali ishlashi uchun moliyaviy institutlar va davlat siyosatining uyg'unligi muhim: soliqqa oid

imtiyozlar, foiz stavkasi bo'yicha preferensiyalar, davlat tomonidan ma'lum miqdorda qo'shimcha badal (matching contribution) kiritish yoki maqsadli subsidiyalar orqali migrantlar va ularning oilalarini investitsion jamg'arishga rag'batlantirish mumkin. Shu bilan birga, family investment accounts tizimi moliyaviy savodxonlik dasturlari bilan birgalikda joriy etilsa, uy xo'jaliklari darajasida risklarni boshqarish, diversifikatsiyalashgan sarmoya portfellarini shakllantirish va kambag'allikdan chiqishning institutsional mexanizmini yaratadi. Natijada migratsiya transfertlari qisqa muddatli iste'mol bosimini yumshatish bilan cheklanib qolmay, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sish, avlodlararo tenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy moliyaviy instrumentga aylanadi.

Beshinchidan, ayollar bandligini oshirish va xizmat transfertlarini iqtisodiy tizimga kiritish ijtimoiy siyosatning ajralmas qismiga aylanishi zarur. Hozirda ayollar mehnat ishtiroki past bo'lgani sababli, uyda bajariladigan parvarish mehnati iqtisodiyotda rasmiy baholanmaydi. Uyda qarovchi shaxslar uchun ijtimoiy sug'urta imtiyozlari yoki "home-care certificate" tizimi joriy etilsa, bu nafaqat ayollar iqtisodiy faolligini oshiradi, balki xizmat transfertlarini ham iqtisodiy qiymatga ega soha sifatida rivojlantiradi [38].

Oltinchidan, ijtimoiy siyosatni ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimiga o'tkazish zarur. Koreya tajribasida NTA usuli nafaqat transfer oqimlarini o'lchaydi, balki davlat byudjeti, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy yordam siyosatlarining o'zaro ta'sirini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun ham bunday analitik yondashuv davlat moliyasini uzoq muddatli demografik prognozlar bilan bog'lash imkonini beradi [40][16].

Umuman olganda, Koreya tajribasini O'zbekiston sharoitida tatbiq etishning asosiy maqsadi — *davlat va xususiy transfertlarning komplementarligini ta'minlash, avlodlararo birdamlikni iqtisodiy resurs aylanishining markaziga qo'yish va ijtimoiy barqarorlikni demografik o'zgarishlarga mos ravishda saqlab qolishdir*. Shu yo'nalishdagi izchil siyosat O'zbekistonga demografik dividend davrini samarali o'tkazish, kelajakda esa aholining qarish jarayoniga tayyorlangan, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy tizimni shakllantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. OECD (2024). *Demographic Outlook for East Asia 2024*. Paris: OECD Publishing.
2. World Bank (2022). *Social Protection Review: The Republic of Korea*. Washington DC: The World Bank.
3. National Transfer Accounts Database (2023). *Republic of Korea Profiles*. Retrieved from: www.ntaccounts.org.
4. OECD (2018). *Ageing and Employment Policies Working Better with Age: Korea*. OECD Publishing.

5. Lee, R., & Mason, A. (2017). Consumption, Labor Income, and Intergenerational Transfers in Asia. *Asian Economic Policy Review*, Vol. 12(1), pp. 114–135.
6. UNFPA (2023). *Population Ageing in Uzbekistan: Trends and Policy Implications*. Tashkent: UNFPA Uzbekistan Office.
7. Becker, G. S. (1981). *A Treatise on the Family*. Harvard University Press.
8. Lee, R., & Mason, A. (2011). *Population Aging and the Generational Economy: A Global Perspective*. Cheltenham: Edward Elgar.
9. X.X. Мамадалиева. Межпоколенных трансферты современной семьи в Узбекистане. Тошкент.
10. X.X.Mamadaliyeva, Avlodlararo transfertlar-Oilaning barqaror rivojlanish vositasi sifatida: O'zbekiston misolida. Yangilanayotgan O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va mehnat bozorini rivojlantirishni transformatsiyalash masalalari. Toshkent 2024.
11. Cox, D., & Jimenez, E. (1990). Private Transfers and the Effectiveness of Public Income Redistribution in the Philippines. *Journal of Public Economics*, 42(3), 249–276.
12. Deuchler, M. (2015). *The Confucian Transformation of Korea*. Harvard University Press.
13. KOSIS (2023). *Population and Housing Statistics*. Korea Statistical Information Service.
14. Holliday, I. (2000). *Productivist Welfare Capitalism: Social Policy in East Asia*. *Political Studies Review*.
15. OECD (2024). *Pensions at a Glance: Korea*. Paris: OECD Publishing.
16. World Bank (2022). *Social Protection Review: The Republic of Korea*. Washington DC.
17. KLoSA (2022). *Korean Longitudinal Study of Ageing, Wave 8 Report*. Korea Labor Institute.
18. Mason, A., Lee, S., & Lee, R. (2020). *Intergenerational Transfers and Economic Growth in East Asia*. University of Hawaii Press.
19. "Population Aging and the Generational Economy" (Lee & Mason, 2011, 2017).
20. Statistics Korea. (2022). *Population Projections for Korea 2022-2042*. Seoul: KOSTAT.
21. Korea Institute for Health and Social Affairs (KIHASA). (2021).
22. *The Journals of Gerontology: Series B / Ageing & Society* (2011). Kim, E. H.-W. & Cook, P. J. The continuing importance of children in relieving elder poverty: Evidence from Korea. Vol 31(6), pp 953-976.
23. *Wellbeing, Space and Society* (2023). Chu, L., Joly, E. & Moisan, M.-G. Child-to-parent intergenerational support and its association with subjective well-

being among older adults: A cross-national comparison of American and Korean parents. DOI 10.1016/j.wss.2023.100177.

24. Kim, H. (2019). Household Transfers and Consumption Smoothing in Korea. *Asian Economic Journal*.

25. UN ESCAP (2023). *Income Security for Older Persons in East Asia*. Bangkok: United Nations ESCAP.

26. KIHASA. (2017). *Korea's Welfare State: Structures and Challenges*. Korea Institute for Health and Social Affairs.

27. Cox, D., Lee, S. & Jimenez, E. (2004). Public Transfers and Private Transfers in South Korea. *Journal of Asian Economics*, 15(2), 231–248.

28. Hwang, Inuk & Lee, Tae-jin. (2023). Inter-Generational Effects of Basic Pension on Adult Children's Subjective Well-Being. *Health and Social Welfare Review*, 43(1), 191–208. doi:10.15709/hswr.2023.43.1.191

29. UNESCAP (2022). *Income Security for Older Persons in the Republic of Korea*. United Nations ESCAP.

30. OECD (2022). *OECD Reviews of Pension Systems: Korea*. Paris: OECD Publishing.

31. Holliday, I. (2000). *Productivist Welfare Capitalism: Social Policy in East Asia*.

32. LTCI Korea (2023). *Long-Term Care Insurance Annual Report*. Seoul.

33. Choi, J. (2021). Family Transfers and Economic Shocks: Evidence from Korea. *Asian Development Review*.

34. World Bank — Personal remittances, received (% of GDP) — Uzbekistan.

35. Horioka, C.Y. (2021). The Life-Cycle Model and Intergenerational Transfers in Asia. *Journal of Economic Perspectives*.

36. X.X.Мамадалиева, Влияние межпоколенных трансфертов на качественное развитие семьи. (2023). In *Nashrlar*. <https://doi.org/10.60078/2023-vol1-iss1-pp396-399>

37. OECD (2019). *The Future of Social Protection: What Works for Family Support?* Paris: OECD Publishing

38. World Bank. (2024). Female labour force participation rate (% of female population ages 15+). World Bank Gender Data Portal.

39. OECD (2024). *Public-Private Transfer Interaction and Care Economy Lessons from Korea*. Paris: OECD Publishing.

40. World Bank. (2005). *Old-Age Income Support in the 21st Century: An International Perspective on Pension Systems and Reform*. Washington, DC: World Bank.

